

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA MUAMMOLARI: INGLIZ MAQOLLARINING O'ZBEK TILIDAGI ADEKVAT IFODASI

Andijon davlat chet tillari instituti,
Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili
yo'nalishi 24.1-guruh talabasi

Lutfullaxo'jayeva Vaziraxon Fayzulloxon qizi

Anotatsiya: Mazkur maqolada paremiologik birliklar — ya'ni maqollar, matallar, aforizmlarning tarjimasida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi maqollarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga chiqadigan leksik, semantik, stilistik va madaniy tafovutlar misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqollarni adekvat tarjima qilishda qo'llaniladigan strategiyalar va tarjimashunoslikdagi ekvivalentlik nazariyalari asosida yondashuvlar tahlil etiladi.

Annotation: This article analyzes the main challenges encountered in translating paremiological units—such as proverbs, sayings, and aphorisms—from English into Uzbek. It discusses lexical, semantic, stylistic, and cultural differences that arise in the translation process, supported by examples. The paper also explores translation strategies and theoretical approaches based on the concept of equivalence in translation studies to ensure adequate and contextually appropriate renderings of proverbs.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные проблемы, возникающие при переводе паремиологических единиц — таких как пословицы, поговорки и афоризмы — с английского языка на узбекский. Анализируются лексические, семантические, стилистические и культурные различия, возникающие в процессе перевода. Особое внимание уделяется стратегиям адекватного перевода и подходам, основанным на теориях эквивалентности в переводоведении.

Kalit so'zlar: Paremiologik birliklar, maqol tarjimas, madaniy tafovut, ekvivalentlik, kontekstual yondashuv, tarjimashunoslik, inglizcha maqollar, o'zbekcha maqollar.

Keywords: Paremiological units, proverb translation, cultural differences, equivalence, contextual approach, translation studies, English proverbs, Uzbek proverbs.

Ключевые слова: Паремииологические единицы, перевод пословиц, культурные различия, эквивалентность, контекстуальный подход, переводоведение, английские пословицы, узбекские пословицы.

Til — bu inson tafakkurining mahsuli va xalqning madaniy boyligini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Har bir millat o‘zining asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy mezonlarini avloddan-avlodga ko‘chirishda til vositasidan, ayniqsa, paremiologik birliklar — ya’ni maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar kabi qisqa va obrazli iboralardan keng foydalanadi. Shu bois maqollar xalq donishmandligining eng ixcham, ammo mazmunan chuqur ifodasidir.

Paremiologik birliklar har bir xalqning o‘ziga xos tafakkur tarzini aks ettiradi va ko‘pincha o‘sha tilga xos obraz, ramz, konnotatsiya, tarixiy yoki madaniy kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Ana shu xususiyatlar esa ularni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida murakkabliklar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillari kabi farqli til guruhlariga mansub tillar o‘rtasidagi tarjimada bu muammo yanada dolzarb tus oladi.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi, tarjimada qo‘llaniladigan strategiyalar ko‘rib chiqiladi hamda ayrim maqollar uchun adekvat tarjima namunalari keltiriladi. Shuningdek, tarjimashunoslikdagi ekvivalentlik nazariyalari asosida maqollarni tarjima qilishdagi yondashuvlar baholanadi.

Paremiologik birliklar deganda xalq og‘zaki ijodining qisqa, obrazli, ko‘p hollarda nasihat yoki hikmatga asoslangan shakllari – ya’ni maqollar, matallar, aforizmlar tushuniladi. Ular tilning nafaqat grammatik, balki stilistik va semantik jihatdan ham eng boy qatlamlaridan biridir. Bu birliklar xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, turmush tarzini ifoda etuvchi lingvokulturologik manbalardir.

Maqollar odatda yakuniy xulosa va umumlashma fikr bildiradi. Masalan, “Oltin olma, duo ol” kabi maqollar insonni ezgulikka chorlovchi, nasihat ohangiga ega bo‘ladi. Matal esa ko‘proq hayotiy holatni ifodalaydi, lekin har doim ham aniq xulosa bermaydi. Misol uchun, “Ish bitganda maslahatchi ko‘payadi” iborasi murakkab ish o‘z yakuniga yetgach unga fikr bildiruvchilar, maslahat beruvchilar ko‘payishi haqidagi kuzatuvni bildiradi. Aforizmlar esa mashhur shaxslar tomonidan aytilgan va keng tarqalgan fikrlarni ifodalaydi. Masalan, Jaloliddin Rumiyning “Yo asling kabi ko‘rin, yo ko‘ringaning kabi bo‘l” iborasi turkiy xalqlar orasida shu qadar mashhurlikka erishganki, ko‘plab insonlar bu aforizmni maqol deb o‘ylaydi.

Paremiologik birliklar tilni jonlantiradi, matnga badiiylilik, ta’sirchanlik va emotsional yuklama beradi. Ularning qiymati faqat semantik mazmunda emas, balki o‘ziga xos ritm, obrazlilik, nutqiy rang-baranglikda ham namoyon bo‘ladi. Bu birliklar ko‘pincha madaniy, tarixiy va psixologik kontekstlarga boy bo‘lib, muayyan xalqning tafakkuri, qadriyatlari va hayot falsafasini aks ettiradi.

Aynan shu murakkablik — ya’ni til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi — paremiologik birliklarni tarjima qilishni osonlashtirmaydi, balki ko‘plab muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki tarjimon nafaqat lug‘aviy moslikni ta’minlashi, balki ushbu birlikning asl mazmunini, hissiy ta’sirini va madaniy zaminini boshqa tilda tabiiy va tushunarli tarzda ifodalashi lozim bo‘ladi.

Paremiologik birliklarni tarjima qilish jarayoni, ayniqsa, turli til guruhlariga mansub va turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi tarjimada murakkab va mas’uliyatli vazifa hisoblanadi. Chunki maqollar oddiy so‘zlar majmuasi emas, balki xalq tafakkurining yondoshuvi, dunyoni anglash tarzining konsentrlashtirilgan shaklidir. Ularning har biri muayyan kontekstda, ma’naviy va madaniy asosda shakllangan bo‘lib, boshqa tilga ko‘chirishda shunchaki lug‘aviy moslikni topish yetarli bo‘lmaydi.

Eng keng tarqalgan muammolardan biri bu — so‘zma-so‘z tarjimaning yetarlicha bo‘lmashligi. Masalan, ingliz tilidagi “When pigs fly” degan iborani so‘zma-so‘z tarjima qilsak, u o‘zbek tilida g‘ayritabiiy va g‘alati eshitiladi: “Cho‘chqalar uchganda.” Holbuki bu ibora ingliz tilida “hech qachon” yoki “aslo bo‘lmaydigan voqea”

ma'nosini beradi. Uni o'zbek tiliga adekvat tarzda "Tuyaning dumi yerga tekkanda" kabi mazmun jihatidan mos maqol bilan tarjima qilish lozim. Yana bir misol tariqasida, "The squeaky wheel gets the grease" iborasini olishimiz mumkin. Ushbu ibora so'zma-so'z tarjima qilinganda "Chiyillagan g'ildirak yog'lanadi" shakliga keladi. Lekin ushbu ibora shu shaklda kontekstga joylansa noo'rin va tushunarsiz ma'no anglatadi. Uni o'zbek tilidagi ekvivalenti sifatida "Yig'lamagan bolaga sut yo'q" maqolini olish mumkin.

Yana bir muhim muammo — madaniy ekvivalentlikning yetishmasligi. Har bir til va xalqning tarixiy tajribasi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy an'analari bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham ayrim maqollar bir tilda mavjud bo'lsa-da, boshqa tilda unga to'liq mos keluvchi maqol bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda tarjimon maqolning umumiy mazmunini saqlagan holda, yangi ifoda topishga yoki izohli tarjima yo'liga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Masalan, inglizlarlarda mashhur bo'lgan "The grass is always greener on the other side of the fence" maqoli so'zma-so'z tarjima qilinganda "Panjaraning narigi tomonidagi maysa doimo yashilroq tuyuladi" shakliga keladi. Bu esa O'zbekistonlik o'quvchilar uchun notabiiy va g'alati tuyulishi mumkin. Chunki bu maqolda ishlatilgan maysa, panjara kabi obrazlar G'arb madaniyatiga xos bo'lib, bizda keng tarqalgan tushunchalar emas. Bu vaziyatda tarjimon matn mavzusidan kelib chiqqan holda mazmun jihatidan yaqin va o'zbek tafakkuriga mos bo'lgan maqol yoki iborani izlashi lozim. Ushbu maqolning o'zbek tilidagi ekvivalenti sifatida "Birovning noni doim shirin tuyuladi" iborasini olish mumkin. Bu ibora o'zbek o'quvchi uchun tabiiy hamda tushunarli bo'ladi. Yoki inglizlarda mashhur bo'lgan yana bir "The guilty dog barks the loudest" maqoli misolqilib olsak, uning asl tarjimasi "Aybdor it baland huriydi" shaklida bo'ladi. Ammo bizning tilimizda itga yoki hayvonlarga doir shunday ma'nodagi maqol yoki ibora mavjud emas. Bunday vaziyatda tarjimon "Qo'rqoq oldin musht ko'tarar" maqolini, agar ushbu maqol mavzuga tushmasa boshqa biror birlik yaratishga harakat qilishi lozim bo'ladi.

Shuningdek, tarjimonlar ko'pincha stilistik moslikni saqlash muammosiga ham duch keladilar. Ba'zi kinoya, istehzo yoki hazil aralash ohangda bo'ladi. Bunday

hollarda ifodaning maqollar va iboralar leksik jihatdan to'g'ri bo'lishi emas, balki aynan uning ohangini boshqa tilga qanday qilib tabiiy va mazmunli tarzda ko'chira olish muhim hisoblanadi. Aks holda, tarjima sun'iy yoki noto'g'ri talqin qilingan bo'lib tuyuladi. Masalan, ingliz tilida "Come out smelling like a rose" iborasi bir murakkab yoki salbiy vaziyatdan zarar ko'rmasdan, hatto foyda bilan chiqadigan insonlar haqida gap ketganda ishlatiladi. O'zbek tilida esa bu iboraning o'rnini to'ldirish uchun "suvdan quruq chiqdi" maqolidan foydalanish mumkin. Chunki bu maqol ham xuddi shunday vaziyatni — murakkab, xavfli yoki salbiy holatdan hech qanday zarar ko'rmay, hatto yaxshi holatda chiqib ketishni ifodalaydi. Yana bir mashhur ibora hisoblangan "Break a leg!" iborasi aslida "Oyoqni sindir" m'nosini ifodalaydi. Ammo u og'zaki nutqda omad tilashda ishlatiladi. Tarjimon bunday vaziyatda so'zma-so'z tarjimaga emas, balki ma'noga e'tibor qaratib, kontekstdagi kinoya, istehzo yoki hazil aralash ohangni saqlab qolgan holda jonli va o'quvchiga tushunarli tarzda asarni tarjima qilishi lozim.

Tarjimonlar duch keladigan yana bir katta muammo bu — kontekstdan ajralgan holda tarjima qilishdir. Maqollar har doim ham alohida holatda ishlatilmaydi, balki muayyan nutqiy vaziyatda qo'llanadi. Agar maqol aynan shu kontekst doirasida to'g'ri tushunilmasa, tarjimada mazmun buziladi. Shuning uchun tarjimonda faqat til emas, balki nutqiy vaziyat, muallif niyati va auditoriya xususiyatlari ham inobatga olinishi zarur. Masalan, o'zbek tilidagi "It hurar, karvon o'tar" maqoli moslashuvchan hisoblanib turli vaziyatlar uchun birdek qo'llaniladi. Lekin ingliz tilida bu iboraning "Empty vessels make the most noise", "Haters gonna hate" va "Stay focused and ignore the noise" singari ko'plab ekvivalentlari mavjud. Bir qarashda ushbu maqollar o'xshash tuyulishi mumkin, chunki ularning barchasi tanqid, gap-so'z, e'tiborsizlik yoki reaksiya haqida. Biroq ularning mazmuniy yo'nalishi, stilistik ohangi va qo'llanish doirasi jihatidan muhim farqlari bor.

"Empty vessels make the most noise" iborasi — qadimiy maqollardan bo'lib, unda insonlar haqida kinoyali va tanqidiy munosabat bildiriladi. Bu ibora orqali ma'naviy yoki aqliy jihatdan "bo'sh" — ya'ni saviyasiz, bilimsiz insonlar ko'proq

gapirib, e'tibor jalb qilishga harakat qiladi, degan fikr bildiriladi. Bunda asosiy urg'u — tanqidchilarning shaxsiy sifati, ularning haqiqatdan yiroq ekani ustida. Ya'ni bu ibora tanqidni emas, tanqidchining darajasini tanqid qiladi.

Bunga qarama-qarshi tarzda, "Haters gonna hate" iborasi ancha zamonaviy va xalq orasida, ayniqsa internet madaniyatida keng tarqalgan. Unda hech qanday chuqur tahlil yoki baho yo'q — bu ibora befarq, biroz kulgili ohangda aytiladi. Ma'nosi shuki, ba'zi odamlar har doim yomon gapiradi, shunchaki ular shunaqa — demak, ularga e'tibor bermasdan yo'lingni davom ettiraver. Bu ibora tanqidchilarning sifati bilan emas, balki ularning har qanday holatda mavjud bo'lishi bilan bog'liq. U real hayotdagi yoki internetdagi salbiy gaplarga e'tibor qilmaslikka chaqiradi, ammo buni yumshoq, norasmiy, kulgili tarzda ifodalaydi.

Uchinchi ibora — "Stay focused and ignore the noise" — boshqa ikki iboraga qaraganda ancha rasmiy, motivatsion va ichki kuchga tayangan holda aytiladi. Bu yerda gap tanqidchilar yoki yomon so'zlovchilarda emas, balki insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadida. Bunda "noise" — shovqin, ya'ni tashqi chalg'ituvchi gaplar, fikrlar, salbiy energiya tushuniladi. Bu ibora insonni chalg'ituvchi har qanday tashqi omillarga qarshi o'z diqqatini saqlab qolishga chaqiradi, ya'ni passiv himoya emas, balki faol ichki intizomga urg'u beradi.

Xulosa shuki, bu uch ibora har xil vaziyatda qo'llaniladi: birinchisi tanqidchilarning sifatini past baholaydi; ikkinchisi ularga kulgili befarqlik bilan qaraydi; uchinchisi esa ularni inobatga olmay, o'z ustida ishlashga da'vat qiladi. Mazmuni o'xshash bo'lsa-da, ohangi, uslubi va vazifasi jihatidan har biri o'z o'rniga ega, tarjimada esa bu farqlarni saqlash juda muhim.

Umuman olganda, paremiologik birliklarni — ya'ni maqollar, aforizmlar va idiomalarni tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p qirrali masaladir. Tarjimaning asosiy qiyinchiliklari leksik (so'z tanlash), semantik (ma'no), madaniy (madaniyatga xos bo'lgan kontekst va an'analar) hamda kontekstual (nutqiy vaziyat va intonatsiya) darajalarda yuzaga keladi. Har bir maqol o'zining noyob madaniy ildizlari va xalq tafakkuriga asoslangan holda shakllanganligi sababli, uni boshqa tilga aynan o'sha

ruhda va ta'sirda tarjima qilish oson emas. Shu boisdan tarjimondan nafaqat chuqur til bilimini talab qilinadi, balki o'rganilayotgan madaniyatning o'ziga xosliklarini, xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini va fikrlash usullarini ham puxta anglab yetishi zarur. Bunday yondashuv orqali tarjimon nafaqat so'zma-so'z tarjima qilishdan qochadi, balki maqolning mazmun-mohiyatini, ifoda uslubini, hatto ohangini ham asrab qoladi. Natijada, tarjima qilingan paremiologik birlik boshqa til foydalanuvchilarida ham chuqur ma'no uyg'otadi, ularning qalbiga kirib boradi, va asli tilidagi kabi o'z o'rnida, ta'sirchan tarzda qo'llanilishi mumkin bo'ladi.

Paremiologik birliklarni tarjima qilish nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy ko'priklar yaratishdir. Bu esa tarjimonning kasbiy mahorati va madaniy kompetentsiyasini talab qiladigan murakkab, lekin ayni paytda juda qimmatli va ijodiy ishdir. Faqat shu tarzda, ikki til va madaniyat orasida samarali muloqot o'rnatilib, xalqaro tushunish va hamjihatlik yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova.U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014
2. S.Shermamatova, Y. Mamadaliyeva. "O'zbek va ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari." Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences
3. S.J.Raxmatullayeva "Ingliz va o'zbek maqollari haqida nazariy qarashlar."
4. <http://www.oxfordhouse.com>
5. Electronic Oxford Dictionary. 2005. (Electron Version)
6. "O'zbek xalq maqollari va matallarida chegara munosabati" Arxiv.uz